

TEKNOLOGIK TA’LIMDA LOYIHA ASOSIDA O‘QITISH METODINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.

ADPI “Pedagogika va Psixologiya”
kafedrası o‘qituvchisi O. Qodirova
ADPI Texnologik ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Q. B. Jumanboyeva

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19420946>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta’lim texnologiyalari fanining asosiy qonuniyatlari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, G‘arb davlatlarida qo‘llanilayotgan ta’lim va tarbiya texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari ham yoritib berilgan. Ayniqsa, ta’lim texnologiyasining rivojlanish bosqichlari hamda shakllanish jarayoni ilmiy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, hozirgi davrda ta’lim texnologiyalarida qo‘llanilayotgan turli darajadagi metodlar ilmiy asosda talqin etilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik texnologiya, pedagogik jarayon, ta’lim-tarbiya jarayoni, pedagogika, zamonaviy pedagogik texnologiya, o‘qitish texnologiyasi, ta’lim texnologiyasi, ta’lim metodi, ta’lim metodikasi, pedagogik texnika, pedagogik-texnologik jarayon.*

Аннотация: *В данной статье с философской точки зрения рассматриваются основные закономерности науки образовательных технологий. Кроме того, раскрываются особенности образовательных и воспитательных технологий, применяемых в западных странах. Особое внимание уделено анализу основных этапов развития образовательных технологий. Также с научной точки зрения интерпретируются современные методы образовательных технологий, применяемые на различных уровнях образования.*

Ключевые слова: *педагогическая технология, педагогический процесс, образовательный процесс, педагогика, современные педагогические технологии, технология обучения, образовательная технология, метод обучения, методика обучения, педагогическая техника, педагогико-технологический процесс.*

Abstract: *This article analyzes the main principles of educational technology from a philosophical perspective. It also highlights the specific characteristics of educational and training technologies used in Western countries. In particular, the major stages in the development of educational technologies are examined. Furthermore, the modern methods of educational technologies used at different levels of education are interpreted from a scientific point of view.*

Keywords: *pedagogical technology, pedagogical process, educational process, pedagogy, modern pedagogical technology, teaching technology, educational technology, teaching method, teaching methodology, pedagogical technique, pedagogical-technological process.*

Pedagogik texnologiya o'zida quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi: 1) Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi. 2). Pedagogik texnologiya didaktik, tarbiyaviy xarakterdagi talim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etishga oid nazariy va amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo‘ladi. 3). Pedagogik texnologiya talim-tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir. 4). Pedagogik texnologiya yo‘naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya'ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi. 5). Pedagogik texnologiya - shaxsiylik xususiyatiga ega bo‘lib, muayyan texnologiyalarni talim-tarbiya jarayonida qo‘llashga nisbatan yagona, qatiiy, meyoriy (standart) talablar qo‘yilmaydi.6).

Har bir pedagog u faoliyat olib yuritayotgan talim-tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart-sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega. 7). Pedagogik texnologiya o'zida talim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti (kamolot) birligini ifoda etadi [Ro'ziyeva D. 2019, - B.43.].

Garchi "Pedagogik texnologiya" nazariyasi g'oyalarining asoslanganiga qariyb bir asr bo'lgan bo'lsa, o'quv fani sifatida respublika oliy talim muassalarida o'qitilayotganiga unchalik ko'p vaqt bo'lgani yo'q. "Pedagogik texnologiya" fani amaliy-pedagogik fan sifatida o'tgan asrning 90-yillarida shakllandi. U amaliypedagogik fan sifatida to'la ravishda "Pedagogika" poydevoriga tayanadi va pedagogik metodologiyada o'z o'rnini aniq belgilaydi. Bugungi kunda fan asoslari o'zida eng ilg'or pedagogik qarashlarning dinamik rivojini aks ettiradi. O'tgan vaqt ichida talim jarayoniga texnologik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari o'rganildi, talim va tarbiya jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish natijalari tahlil qilinib, muayyan xulosalarga kelindi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining uzluksiz talim tizimiga ham ilg'or pedagogik texnologiyalami faol tatbiq etishga etibor qaratilib, bu borada sezilarli yutuqlarga ham erishildi.

Pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan "pedagogik texnologiya" tushunchasiga msbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi" deya tariflaydi[2].

hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. N.F.Talizina esa pedagogik texnologiyani "fan va amaliyot oralig'ida muayyan tamoyillarni olg'a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalarni hal etishga yo'naltirgan mustaqil fan" bo'lishi lozimligini qayd etadi va h.k. So'nggi o'n yilliklar davomida nutqimizda "pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya", "o'qitish texnologiyasi" kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda. Aksariyat pedagoglar "talim texnologiyasi" va "pedagogik texnologiya" tushunchalari mazmunan bir manoni anglatishini aytadi. Bunday yondashuv u qadar to'g'ri emas. Zero, yuqorida qayd etib o'tilganidek, talim jarayonini texnologiyalashtirish g'oyasi dastlab G'arbiy Yevropa va AQSHda shakllangan. Ularda "Pedagogika" fani mavjud emas, shu bois "pedagogik faoliyat", "pedagogik texnologiya" tushunchasi ham istemolda yo'q. Ushbu mamlakatlarda shaxsga ilmiy bilimlarni berish jarayoni "talim jarayoni" sifatida nomlanadi, shaxsga bilimlar berish, uning malumotini oshirish, talim samaradorligini taminlashga xizmat qiluvchi fanlar majmui "Metodika" deb yuritiladi. Metodika fanlarini o'qitishda asosiy etibor ta'lim sifatini yaxshilash, uning samaradorligini ta'minlashga qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi talim amaliyotida o'qitilib kelinayotgan "Pedagogika" fanining predmeti shaxsni shakllantirish, uning kamolotini taminlashga yo'naltirilgan talimiy va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayonining mazmunidan iborat. Yani, shaxs kamoloti talimiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonining natijasi sifatida namoyon bo'ladi[3].

Mualliflarning "pedagogik texnologiya" tushunchasini yoritishga yondashuvlari ham turlicha. Masalan: "Pedagogik texnologiya" tushunchasining mohiyati: - talim jarayoniga topshiriqli yondashuv (T.N.Ballo); - bosqichli o'qitish (L.V.Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov)[Исламгулова С.К. 2003.-С.23.] - mazmunli umumlashma (G.K.Selevko); - barcha jihatlariga ko'ra o'ziga xos, samarali natijalarni qo'lga kiritish imkonini beruvchi pedagogik tizimni tashkil etish bilan bog'liq holda talim tizimi doirasida olib borilayotgan tadqiqot nazariyasi va amaliyotining muayyan tarmog'i (P.Mitchel); - texnologik loyihaga asoslangan talim jarayonini tashkil etish usuli (S.K.Islamgulova); - talim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va b.ni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birligidagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va aniqlashning izchil metodi

(YUNESKO); - pedagogik maqsadlarga erishish yo'lida foydalaniladigan barchashaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig'indisi va ularning amal qilish tartibi (M.V.Klarin); - talim jarayoniga nisbatan o'ziga xos yondashuv; - ijtimoiy-muhandislik tafakkurining pedagogik ifodasi, texnokratik ongning pedagogikaga ko'chirilgan tasviri, talim jarayonining muayyan standard (B.L.Farberman); - didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishish, talim jarayonini avvaldan loyihalashtirish (U.N.Nishonaliyev); - pedagogning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoit va izchillikda tasir ko'rsatishi va mazkur faoliyatning mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayoni (N.Saidahmedov); - muayyan vaziyatlarda pedagogik masalalarni yechishning optimal usuli (A.Kushnir); - kutilayotgan natijaga erishish jarayonining tavsifi (I.P. Volkov). Rivojlangan mamlakatlar talim tizimida shaxs ijtimoiylashuvini taminlovchi yetakchi omil sifatida talim jarayoni etirof etilsa, biz shaxsning shakllanishida talim hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beramiz. Aksariyat hollarda esa tarbiya jarayoni bu borada ustuvor bo'lishi lozim, chunki o'zida axloqiy xislatlarni namoyon eta olgan shaxsgina ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ular mazmunining ijobiy xususiyat kasb etishini taminlaydi, axloqli insongina talim (bilim)ni qadrlay oladi, zero, axloqning asosiy kategoriyalaridan ham bilimlilik sanaladi, degan g'oyani ilgari suramiz. Shunday ekan, bu o'rinda “pedagogik texnologiya tushunchasining qo'llanilishi, shuningdek, asosiy etiborni faqat talim jarayonini samarali tashkil etishgagina qaratmay, balki ham talim, ham tarbiya jarayonining samaradorligini taminlashga birdek qaratish lozimdir[4].

“Talim texnologiyasi” tushunchasi “talim metodikasi” tushunchasiga nisbatan kengdir. Talim metodi - o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan pedagog va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli. Talim texnologiyasi - talim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, yani, avvaldan loyihalashtirilgan talim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda talim jarayonini yuqori darajada boshqarish sifatida qaralib kelingan. Lug'aviy jihatdan “talim texnologiyasi” tushunchasi (ing. “An educational technology”) - talim jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etishga doir malumotlar beruvchi fan, talimot manosini anglatadi. Pedagogik texnologiya masalalarini tadqiq etishda ham umumiy ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari faol qo'llaniladi [Inovatov U., Mushmov A., Usmonboev M., Inog'omova U. 2012.- B.64-68.]. Shuni aytib o'tish joizki, ayni vaqtda talim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona to'xtamga kelinmagan.

Talim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Talim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa, AQSHda talim tizimini isloh qilish, talim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini taminlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30- yillarda talim jarayoniga „pedagogik texnika” (“talim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Bu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik texnika” (yoki “talim texnikasi”) tushunchasi “o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi” tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir, deya baholandi.

XX asming 50-yillarida talim jarayonida texnik vositalarni qo'llash “talim texnologiyasi” yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya etirof etildi, asosiy etibor magistrlar auditoriyasini kengavtirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning

imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ulaming axborot sig’imini kengaytirish, axborotlarm uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, talim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob’ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ulami takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o’quv jarayonini “texnologiyalashtirish”ning tashkiliy jihatlarini o’rganishga alohida urg’u berildi. 60- yillarning boshlarida talimni dasturlash asosida talim jarayonini tashkil etish “texnologiya” tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko’rila boshlandi [Ro’ziyeva D. 2019. – B.16.].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Арипджанова А.Р. (2017). Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари.
2. Axmadovna S.D. (2021). Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning kreativligini rivojlantirish: Sayfullayeva
3. Bahronova Sh.I. (2024). Oliy ta’limda talabarning kasbiy kompetensiyalarini va kreativligini shakllantirishda dasturlashtirilgan vositalarning o’rni. // “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy metodik jurnal. №1 (B.184-188).
4. Baxronova S., Davlatova N. (2023). Texnologiya fanidan mashg’ulotlarni tashkil qilishning zamonaviy kompetensiyalari //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – Т. 1. – №. 7. (С. 64-68).
5. Baxronova S., Davlatova N. (2023). Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishning pedagogik shartlari.
6. Позилова Ш.Х.(2018). Креативная компетентность преподавателей информатикивысших учебных заведений // Информатика и образование.-М.: - №1. (С.61-63).